



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'ZBEK INGLIZ VA TILLARI PSIXOLOGIK TERMINLARIDA GRADUONIMIYA HODISASI

Jovbo'riyeva Saodat O'ktamovna
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
saodatjovboriyeva@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179335>

Annatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikda graduonimiya hodisasi haqida nazariy qarashlar hamda takomillashish jarayonlari haqida so'z yuritiladi. Graduonomik qatorga kiruvchi so'zlar va ularga qo'yiladigan talablar haqida to'xtalib o'tiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi psixologiya sohaviy terminologiyasidagi graduonomik terminlar aniqlanib tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: graduonimiya, rank, degree, grade, ma'noviy omil, so'zlararo pradigmatik munosabatlar.

Graduonimiya grekcha – “o'sish, ko'tarilish onymo-nom” ma'nosini anglatadi. Tilshunoslikda graduonomiya hodisasi so'z ma'nolari, darajasi, bo'yoqdorligi, hajmi miqdori jihatidan o'sish va kamayishini o'rganuvchi soha.

Graduonimiya asrlar davomida tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, leksik-semantik munosabatlar tarkibiga kiruvchi graduonimiya hodisasi dastlab sinonimiya hodisasi tarkibida o'rganilgan. Yunon faylasuf olimi Platonning «Kratil» asarida mazkur masalaga Suqrot bilan munozara tarzida javob izlanganligini ko'rish mumkin. Qadimgi Yunon tilshunosligining falsafiy davrida faylasuflar notiqlikka alohida urg'u berdilar. Binobarin, notiqlikka bevosita xizmat qiladigan stilistika va sinonimiyaga oid ishlarni miloddan avvalgi VI-V asrdayoq yunon tilshunosligida juda ko'plab uchratish mumkin edi. Xususan, miloddan avvalgi V asrda sinonimlar nazariyasini ishlab chiqqan Prodik omonim va sinonimlarni yaxshi bilish notiq va shoirlar uchun muhim ekanini qayd etgan edi. Ushbu ma'lumotlar tadqiqotimizning qadimgi rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot beradi. Graduonimiya masalalari haqida XV asrda yashab ijod qilgan buyuk mutaffakkir Mir Alisher Navoiy hazratlari o'zining “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida aniq dalillar keltirib o'tganligini alohida qayd qilishimiz lozim. “Buyuk mutafakkir o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari kengligini dalillash jarayonida yig'lamoq fe'lining va boshqa so'zlarning sinonimlarini tahlil qiladi, forstojik tili so'zlari bilan qiyoslaydi. Bu holat darajalanish hodisasi ijod ahllarining ham e'tiborini tortganligidan dalolat beradi.

Ingliz tilida ozlik va ko'plik holatlarini aks ettiruvchi umumiy semalar takror holda sinonimlar, ba'zi hollarda esa tur (giponimlar) sifatida tadqiq etilib, lug'atlarga kiritilgan.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ingliz olimi D.A.Kruznining "Lexical semantics" kitobining "Rank, degree and grade" deb nomlangan bo'limida shunga o'xshash hodisa ko'rib o'tilgan. Ammo bu holat graduonimiya bilan bir xil bo'lgan hodisa tahlil etilgan, deyishga asos bo'la olmaydi.

D.A. Kruznining fikricha, o'lchov, Daraja, martabani bildiruvchi so'zlar, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi. Ular cheksiz davom etuvchi va alohida darajaga egalikni ko'rsatuvchi leksemalar bo'lib, D.A.Kruz ularni hosil qilishda hech qanday ma'no kuchaytiruvchi, qo'shimchalar qo'shilmasligini va ular o'zaro bir-biridan darajasi bilan farqlanuvchi, bitta sohaga, tushunchaga doir so'zlar ekanligini ta'kidlaydi. Quyi bosqichlardan to yuqori bosqichgacha bo'lgan, ko'pincha martaba, unvonni bildiruvchi so'zlarni olim "rank terms", ya'ni martaba, o'sib borish tartibidagi so'zlar, atamalar deb ta'kidlaydi. Olim bu leksemalar doim o'sib borish tartibida, ketma-ketligi buzilmagan holda berilishi shart. Misol tariqasida quyidagi misollar keltirilib o'tilgan: *major*, *colonel* kabi leksemalar graduonomik birliklar qatoriga kiritiladi.[2;32]

Graduonimiya haqida R.Sayfullayeva quyidagicha izoh beradi: Lug'aviy birliklarning o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma'lum va mazkur tushuncha tilshunoslikda graduonimiya hodisasi sifatida izohlanib keladi. [3;114] Sayfullayeva graduonimiyaga misol tariqasida "o'rta" so'zini tahlil qilib o'tadi.

Katta-o'rta-kichik;

Yosh-o'rta-qari;

Uzoq-o'rta-yaqin;

Baland-o'rta-past;

Uzun-o'rta-qisqa.

So'zlarni graduonomik qatorga ajratishni ikki xil omili mavjud:

1)ma'noviy omil;

2)so'zlararo paradigmatik munosabatga ko'ra.

Ma'noviy omilning o'zi ikkiga bo'linadi va ular quyidagichadir.

1)bir-biriga yaqin va o'xshash tushunchalarni ifodalashiga ko'ra;

2)ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishiga ko'ra.

Bundan tashqari G.Ergasheva o'zining nomzodlik ishida Rus va o'zbek tillaridagi psixologik terminlarida graduonomiya hodisasini tahlil qiladi va ba'zi misollar orqali ko'rsatib o'tadi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Yuqoridagi nazariy qarashlarga asoslangan holatda biz mazkur maqolamizda ingliz va o'zbek tillari psixologik terminlarida graduonomik misollarni keltirib o'tishni maqsad qildik.

O'zbek psixologiyasi terminologiyasida graduonomik so'zlarga quyidagilarni misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin:

Ajablanmoq, hayron bo'lmoq, hayratlanmoq;

Ahmoq, tentak, devona;

Kuyunchak, mehribon, g'amxo'r, shafqatli;

Achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrilanmoq;

Sodiq, vafodor, sadoqatli, fidokor;

Jasur, mard, qo'rqmas, botir, dovyurak.

Ingliz psixologiyasi terminologiyasida ham bir qator graduonomik misollarni keltirib o'tishimiz mumkin:

Crazy, foolish, stupid, silly, dull, mad, insane, absurd, tedious, rattle-headed, dump, jerky;

Smart, intelligent, cleaver, bright, brilliant, genius, ingenious;

Sad, depressed, unhappy, sorrowful, gloomy;

Ache, pain, hurt, throb;

Change, alter, replace, switch [4;2081].

Yuqoridan keltirilib o'tilgan misollarga asoslangan holda graduonomik munosabat ham o'zbek ham ingliz psixologiyasi terminologiyasida kuzatiladi.

G.Ergasheva ham o'zining ishlarida rus va o'zbek tillaridagi graduonomik munosabat asosan shaxs xarakter-xususiyatini ifodalovchi terminlar o'rtasida sodir bo'lishini dalillab o'tgan. Biz ham izlanishimiz davomidan ingliz tilida graduonomik munosabatlar asosan inson shaxs xarakterini ifodalovchi terminlar o'rtasida kuzatilishini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Obidova Gulmira Kuzibaevna. Badiiy nutqda stilistik graduonomiyani namoyon bo'lishi. Yangi o'zbekiston talabalari axborotnomasi. 1-Jild, 5-son.2023-yil.
2. **Джумабаева Жамила Шариповна.** Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия.
3. 3.Sayfullayeva R va boshqalar "Hozirgi o'zbek adabiy tili" O'quv qo'llanma.-Toshkent., "Fan va texnologiya"-2009. 416 b.
4. 4.Logman dictionary of contemporary English. Pearson Longman. 2009 p 2081.